



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 4-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

INGLIZ TILI MASHG'ULOTLARIDA YURISPRUDENSIYA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING YOZUV MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Raxmanova Dildora Abdulxamid qizi

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

Email: raxdildora18@gmail.com

Tel: +998936764114

UDK.37.378.378.4 ORCID:0009-0002-8419-6495

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tili mashg'ulotlarida yozuv malakalarini rivojlantirishda qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlari tahlil qilinadi. Huquqshunos mutaxassislar uchun kasbiy faoliyatda yozma nutq malakalarining, xususan, huquqiy hujjatlar, shartnomalar, arizalar va rasmiy xatlarni ingliz tilida to'g'ri va aniq tarzda tuza olish ko'nikmasining ahamiyati asoslab beriladi.

Maqolada mazmun va til integratsiyalashgan ta'lim (CLIL) asosida qurilgan topshiriqqa yo'naltirilgan ta'lim (TBLT) metodologiyasining huquqiy ingliz tilini o'qitishdagi o'rni, boshqariluvchi yozuv (guided writing), hamkorlikdagi yozuv (collaborative writing) va tayanch ko'rsatmalar (scaffolding) texnikalarining talabalar yozuv kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirishdagi samaradorligi ko'rib chiqiladi. Xususan, CLIL asosidagi TBLT yondashuvi orqali talabalarining huquqiy mazmunni til bilan uzviy bog'liq holda o'zlashtirishi, guided writing metodi yordamida yozma matn tuzish jarayonida bosqichma-bosqich yo'naltirilishi, collaborative writing orqali hamkorlikda ishlash va bir-birining matnlarini tahlil qilish ko'nikmalarining shakllanishi, scaffolding texnikasi esa talabaning mustaqil yozish darajasiga erishguniga qadar zarur bo'lgan vaqtinchalik yordam vositalarini ta'minlashi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yozuv malakalari, CLIL, TBLT, guided writing, collaborative writing, scaffolding, yurisprudensiya yo'nalishi, huquqiy ingliz tili (Legal English), kasbiy kompetensiya.

СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ПИСЬМА У СТУДЕНТОВ ЮРИДИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Рахманова Дилдора Абдулхамид кизи

Преподаватель Наманганского государственного университета

Аннотация. В данной статье анализируются современные образовательные технологии и методы, применяемые при развитии навыков письма у студентов юридического направления на занятиях по английскому языку. Обосновывается значимость навыков письменной речи для профессиональной деятельности юристов, в частности умения грамотно и точно составлять на английском языке юридические документы, договоры, заявления и официальные письма. В статье рассматривается роль технологии обучения на основе заданий (TBLT), построенной на принципах предметно-языкового интегрированного обучения (CLIL), в преподавании юридического

английского языка, а также эффективность методов управляемого письма (*guided writing*), совместного письма (*collaborative writing*) и техники «поддерживающих опор» (*scaffolding*) в поэтапном формировании письменной компетенции студентов. В частности, анализируется, каким образом подход CLIL-TBLT позволяет студентам осваивать юридическое содержание в неразрывной связи с языком, метод *guided writing* обеспечивает пошаговое сопровождение в процессе составления письменного текста, *collaborative writing* способствует формированию навыков совместной работы и анализа текстов друг друга, а *scaffolding* обеспечивает временные средства поддержки, необходимые студенту до достижения им самостоятельного уровня письма.

Ключевые слова: навыки письма, CLIL, TBLT, *guided writing*, *collaborative writing*, *scaffolding*, юридическое направление, юридический английский язык (*Legal English*), профессиональная компетенция.

MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING WRITING SKILLS OF LAW STUDENTS IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES

Rakhmanova Dildora Abdulkhamid qizi

Lecturer, Namangan State University

Abstract. This article analyzes modern educational technologies and methods used in developing the writing skills of law students in English language classes. The importance of written communication skills for legal professionals — particularly the ability to draft legal documents, contracts, applications, and official letters accurately and correctly in English — is substantiated. The article examines the role of Task-Based Language Teaching (TBLT) built on the basis of Content and Language Integrated Learning (CLIL) in teaching Legal English, as well as the effectiveness of guided writing, collaborative writing, and scaffolding techniques in the gradual formation of students' writing competence. Specifically, it analyzes how the CLIL-based TBLT approach enables students to acquire legal content in close connection with language, how the guided writing method provides step-by-step direction in the process of composing written texts, how collaborative writing fosters skills of working together and analyzing each other's texts, and how scaffolding provides the temporary support tools necessary until students reach an independent level of writing.

Keywords: writing skills, CLIL, TBLT, *guided writing*, *collaborative writing*, *scaffolding*, law major, Legal English, professional competence.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimi jadal rivojlanayotgan axborot asrida ta'lim jarayonlarini yangicha metodik yondashuvlar va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ayniqsa, talabalarda

sohaga oid kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy lingvodidaktik metodlarni qo'llash dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, chet tilni o'qitishda ilg'or metodlar va innovatsion texnologiyalarning uyg'unligi o'quv jarayonining interaktiv va kontekstual tashkil etilishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda global va professional kommunikatsiya vositasi sifatida chet tilini egallash talab etiladigan malakalardan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabalar uchun sohaga mos chet tili kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash, zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh kadr sifatida shakllantirishda innovatsion metodikalar muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Faol ta'lim muhitini shakllantirish, bilim oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish, o'quv materiallaridan samarali foydalanish, xorijiy tilni o'qitish metod va texnikalari bo'yicha bilimga ega bo'lish va ularni amalda qo'llay bilish - ingliz tili ta'limida zarur bo'lgan muhim sifatlar hisoblanadi.

Pedagogik amaliyotda mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun turli xil o'qitish metodlaridan foydalaniladi. Ular quyidagicha guruhlarga ajratiladi:

1. *An'anaviy metodlar* - bu metodlar ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan, klassik o'qitish shakllarini o'z ichiga oladi: og'zaki bayon qilish (ma'ruza), suhbat usuli, darslik va matnlar bilan ishlash, ko'rgazmali namoyish (vizual taqdimot), amaliy mashg'ulotlar, leksiya.

2. *Noan'anaviy metodlar* - bu usullar o'quvchilarning faolligini oshirishga, dars jarayonini interaktiv qilishga xizmat qiladi: konferensiyalar, seminarlar, munozaralar, texnik vositalardan foydalanish (projektor, videoroliklar va h.k.), kasbga yo'naltirilgan topshiriqlar, yozma ishlar, testlar, "O'ylab top" kabi so'z o'yinlari.

3. *Umumiy didaktik metodlar* - Bu metodlar ta'limning asosiy tamoyillariga asoslanadi va turli fanlarda qo'llanilishi mumkin: tushuntirish, ko'rsatma (namoyish) berish, muammoli o'qitish, taqqoslash, izlanishga yo'naltirish (tadqiqot usuli).

4. *Faol o'qitish metodlari* - ushbu metodlar talabalarni mustaqil fikrlash, izlanish va faol ishtirok etishga undaydi: mantiqiy fikrlashga undash, guruhli ishlash (kooperativ o'qitish), kuzatuvlar olib borish, ish qog'ozlari bilan ishlash, ekskursiyalar (tashriflar), anketa va so'rovnomalar, ko'rgazmalar tashkil qilish, hikoya qilish (storytelling), sahnalashtirish (rol o'ynash), audio materiallar tinglash, internetdan ta'limiy maqsadda foydalanish, o'z-o'zini baholash (attestatsiya).

5. *Psixologik va innovatsion metodlar* - bu metodlar talabalarning tafakkurini faollashtirish, tahliliy va ijodiy fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi: "Aqliy hujum" (brainstorming), "VENN diagrammasi", "Zanjir" metodi, "Klaster" (g'oyalarni guruhlash) metodi, "Kubik burchaklari" (spektiv analiz), "Toifali sharh", "Ikki qismli kundalik", "INSERT" metodi (interaktiv belgili o'qish strategiyasi).

Zamonaviy ta'lim jarayonida yuqoridagi metodlar talabalarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi metodlarni dars mazmuni, o'rganuvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi va pedagogik maqsadlarga qarab tanlashi lozim.

D. Hidoyatovaga ko'ra, zamonaviy o'qitish metodlari — bu ta'lim oluvchini o'quv jarayonining markaziga qo'yuvchi, uni faollikka va mustaqil fikrlashga undovchi metodlardir. Ushbu metodlardan foydalanilganda, o'qituvchi o'z faoliyatini faqat bilim yetkazuvchi emas, balki talabani faol ishtirok etishga undovchi tashkilotchi sifatida olib boradi. Bunda talaba esa o'qitishning barcha bosqichlarida faol ishtirokchi rolini egallaydi.

D. Hidoyatova zamonaviy metodlarning asosiy tamoyillarini quyidagi yo'nalishlarga ajratadi: "1) *yuqori natija beruvchi o'qish va o'rganishga yo'naltirish* – ya'ni metodlar o'quv jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kerak. 2) *o'quvchini faol rag'batlantirish* – o'quvchini ichki motivatsiyasini oshirish va o'qishga bo'lgan qiziqishini mustahkamlash. 3) *avvalgi bilimlar asosida yangisini qurish* – ilgari o'zlashtirilgan bilimlar yangi bilimlarni egallashda asos bo'lib xizmat qiladi. 4) *o'qish*

sur'atini o'quvchi ehtiyojiga moslashtirish – o'quv jarayonini har bir o'quvchining individualligiga qarab tashkil etish.5) *o'quvchining tashabbusini qo'llab-quvvatlash* – ta'lim oluvchining faol, mustaqil harakatlariga imkon berish. 6) *amaliyot asosida o'rganishni ta'minlash* – nazariy bilimlarni bevosita amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash.7) *o'qituvchi va o'rganuvchi o'rtasida ikki tomonlama fikr almashinuvini ta'minlash* – ta'lim jarayonida fikr bildirish, savol-javob, muhokama va bahsga asoslangan faol muloqotni yo'lga qo'yish".

Zamonaviy ko'nikmalar, xususan, chet tillarini o'rganish va ulardan samarali foydalanishda bilish, tushunish, idrok etish hamda eslab qolishga oid muqobil va variativ yondashuvlarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Hozirgi kunda zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda jahonda sinovdan o'tgan ilg'or usullarni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish ijobiy natijalar bermoqda. O'qituvchi qanday usul yoki metodikani qo'llamasin, asosiy e'tibor ta'lim sifatini oshirish va aniq natijalarga erishishga qaratilishi lozim.

Aynan shu yo'nalishda CLIL - Content and Language Integrated Learning (Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish) texnologiyasi ta'lim mazmunini boyitish, tilni amaliy kontekstda o'rgatish va ingliz tilida huquq yo'nalishi talabalari uchun yozuv malakalarini takomillashtirishda alohida o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Barcha nutq faoliyat turlarini rivojlantirishda keng qo'llab kelinayotgan TBLT(Topshiriqqa asoslangan ta'lim) metodi "real hayotdagi vazifalarni tahlil qilish, ularning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun zarur bo'lgan nutq va til vositalarini aniqlash, hamda shu asosda metodik topshiriqlarni loyihalash va qo'llashni anglatadi. Bu topshiriqlar o'z navbatida, talabalarning shu vazifalarga oid amaliy ko'nikmalari va til kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi".

Topshiriqqa asoslangan metod (TBLT) orqali talabalarga tilni real kontekstda qo'llashga imkon beruvchi autentik (haqiqiy) vaziyatlar yaratiladi. Ayniqsa, huquqiy ta'limda bu yondashuv talabalarning kasbiy kontekstda yozuv malakalarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. TBLT asosidagi topshiriqlar talabalarga huquqiy matnlarni yaratish, huquqiy fikrlarni izchil va dalillangan bayon qilish, hamda normativ asosda fikr yuritish imkonini beradi.

H.Marashi va L.Dadari ta'kidlaganidek: "topshiriqlar asosida ishlash o'quvchilarning ijodiy fikrlash va tanqidiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi". Bu jihatlar huquqshunoslar uchun ayniqsa dolzarb, chunki har qanday huquqiy yozuv – bu nafaqat matn, balki loyihalangan dalillashuv tizimidir. TBLT orqali talaba biror qonun loyihasini tahlil qilish, huquqiy holatga sharh berish yoki shartnoma bandlarini baholash kabi topshiriqlar orqali real kasbiy yozuv faoliyatini simulyatsiya qiladi.

Shuningdek, bu metod yozuv malakalarini shakldan ko'ra mazmunga urg'u berish orqali chuqurlashtiradi. Ya'ni, talabalar matn grammatikasidan ko'ra, uning funksional aniqligi, dalillanishi va mantiqiylikni ustuvorlik sifatida tushunadilar. Bu esa yuridik yozuvning eng muhim jihatlaridan biridir.

Shu bilan birga, bu metodning ba'zi muammoli jihatlari ham mavjud. Masalan, murakkab huquqiy holatlar asosidagi topshiriqlarni yaratish va baholash uchun ko'proq tayyorgarlik vaqti talab etiladi. Talabalar ham bu topshiriqlarni samarali bajarish uchun darsdan tashqarida mustaqil izlanish va vaqt sarflashlari kerak bo'ladi. Bu esa ba'zilarida charchoq va motivatsiya yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, huquqiy yozuv topshiriqlari bosqichma-bosqich (scaffolding) asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Yurisprudensiya yo'nalishi talabalariga ingliz tilida yozuv malakasini rivojlantirishda CLIL texnologiyasi va TBLT metodini amalda qo'llashda ko'maklashuvchi ta'lim usullaridan biri bu "Skaffolding" strategiyasidir.

Ta'lim psixologiyasida "scaffolding" (bosqichma-bosqich ko'mak berish) - bu talabalarga vaqtinchalik yordam ko'rsatish orqali, ular topshiriqlarni mustaqil bajara oladigan darajaga yetgunlariga qadar ularga yo'naltiruvchi ko'mak berishni nazarda tutadigan o'qitish usulidir.

Bu tushuncha konstruktivistik ta'lim nazariyalariga asoslangan bo'lib, 1970-yillarda J.Bruner va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan. Ular bu g'oyani sovet psixologi L. Vygotskiy ishlariga tayanib rivojlantirishgan.

"Scaffolding — bu talabani mustaqil bajarishga hali tayyor bo'lmagan topshiriqlarni bajarishda vaqtincha yordam beruvchi pedagogik strategiyalar to'plamidir. Murakkab huquqiy matnlarni yozishdan oldin keltirilgan misollar, ko'rsatmalar, struktura andozalari yordamida talabaga dastlabki yo'l-yo'riq beriladi. O'qituvchi matnni bosqichma-bosqich ishlab chiqishda yo'l ko'rsatadi: birinchi bosqichda – dalilni tanlash, ikkinchi bosqichda – ularni tahlil qilish, so'ng – xulosa chiqarish kabilarni amalga oshirish kerakligini asta-sekin tushuntirib boradi. Talabalar huquqiy fikr bildirish va yozishdagi ishonchsizlik va qo'rquvdan xalos bo'ladi. Yozuv jarayoni rejalashtirilgan, strukturalangan va nazorat qilinadigan bo'ladi.

Scaffolding turli shakllarda namoyon bo'ladi — masalan, strukturaviy savol berish, yo'naltiruvchi maslahatlar, yoki shaxsiylashtirilgan fikr-mulohazalar orqali.

Ushbu o'qitish modeli hozirgi kunda turli ta'lim muhitlarida qo'llanilmoqda va o'zining moslashuvchanligi hamda o'rganishga ijobiy ta'siri bilan tan olingan".

Guided Writing (yozuvga yo'naltirish) usuli yozuvni bosqichma-bosqich o'zlashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuvda o'qituvchi talabalarni yozuvning har bir bosqichida — rejalashtirish, tahlil qilish, yozish va tahrirlash jarayonlarida faol qo'llab-quvvatlaydi. Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatishicha, yozuvni aniq ko'rsatmalar va yo'naltirish asosida o'rgatish talabalar yozuv sifatini sezilarli darajada oshiradi. L.Okzusning fikriga ko'ra; " Guided writng" usuli "o'rgatilayotgan" va "mustaqil yozuv" o'rtasidagi ko'prik bo'lib, talabalarni mustaqil yozuv faoliyatiga o'tish jarayonida

qo'llab-quvvatlovchi tayanch vazifasini bajaradi." *Guided writing* usuli CLIL texnologiyasi doirasida yurisprudensiya yo'nalishi talabalarining kasbiy yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonda o'qituvchi talabalarning yozma faoliyatini huquqiy mazmun asosida muhokama qilish, huquqiy matnlarni birgalikda yaratish hamda ularning mustaqil yozma ishlarini tahlil va baholash orqali tizimli ravishda yo'naltiradi. *Guided writing* jarayonida o'qituvchi o'rganuvchilar guruhi bilan muayyan huquqiy-yozma topshiriq (masalan, case analysis, legal essay, memorandum) ustida hamkorlikda ishlaydi. Ushbu topshiriqlarning maqsadlari talabalar tomonidan huquqiy yozuv jarayoni, rasmiy uslub hamda yuridik terminologiya bo'yicha avval o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarga asoslanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Talabalarning ingliz tilida yozuv malakalarini rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashuvchi, yuqorida izohlangan ta'lim texnologiyalarini izchil, maqsadli va metodik jihatdan asoslangan holda qo'llash natijasida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning yozma nutq faoliyatiga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ularning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati kengayadi. Mazkur texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarda ingliz tilida fikrlarni mantiqiy, izchil va grammatik jihatdan to'g'ri ifodalash, leksik birliklardan nutq vaziyatiga mos ravishda foydalanish, matnning strukturaviy yaxlitligini ta'minlash, dalillarni asoslash hamda turli janr va uslubdagi yozma matnlarni yaratish kompetensiyalari rivojlantiriladi. Shuningdek, ta'lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida talabalarning o'z yozma ishlarini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va tuzatish, o'z faoliyatini baholash hamda o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni yangi kommunikativ vaziyatlarda mustaqil qo'llash imkoniyatlari shakllanadi. Natijada talabalarning ingliz tilidagi yozuv malakalari nafaqat lingvistik jihatdan, balki kognitiv, kommunikativ, diskursiv va reflektiv komponentlar nuqtayi nazaridan ham kompleks

ravishda rivojlanib, ularning akademik va kasbiy faoliyatda samarali yozma muloqot olib borish kompetensiyasi takomillashadi.

Jumladan, *"collaborative writing"* usulida quyidagilarga erishiladi:

Har bir ishtirokchi boshqalarning fikrini tahlil qiladi, dalillarni tekshiradi va asosli mulohaza bildirishga o'rganadi.

Talabalar birgalikda ishlash jarayonida rasmiy-huquqiy uslub, terminologiya va mantiqiy tuzilmani chuqurroq o'zlashtiradi.

Guruhda ishlash jarayonida talabalar o'z hissi uchun javobgar bo'ladi, plagiatning oldi olinadi va manbalarga to'g'ri murojaat qilish ko'nikmasi shakllanadi.

Muhokama, kelishuv va birgalikda qaror qabul qilish jarayonlari talabalarning kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantiradi

1-rasm. Hamkorlikda yozuvning yuridik yo'nalish talabalari uchun foydalari

Collaborative writing (hamkorlikda yozuv) — bu bir nechta talabalarning umumiy maqsad asosida birgalikda matn yaratishi, tahrirlashi va takomillashtirishi jarayonidir. Ushbu mashq talabalarning nafaqat yozish, balki tanqidiy fikrlash, muloqot va jamoada ishlash kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Yuridik ta'limda bu usul real kasbiy faoliyatga yaqinlashishga xizmat qiladi, chunki huquqshunoslar ko'pincha jamoa bo'lib hujjatlar tayyorlaydi. Collaborative learning (*Hamkorlikda o'rganish*) g'oyasi dastlab XX asrning oxirlarida Spenser Kagan tomonidan taklif etilgan.

TBLT metodi orqali esa quyidagilarga erishiladi:

1- Jadval

TBLT(topshiriqqa asoslangan ta'lim) asosida yozuv mashqi strukturasi

Bosqich	Mashq nomi / Faoliyat	Maqsad	Natija
---------	-----------------------	--------	--------

1. Pre-Task	Kirish (video yoki matn orqali)	Huquqiy yozuv mohiyatini tushunish	Yozuv uslubining o'ziga xos jihatlarini anglash
	Model matn tahlili (IRAC modeli asosida)	Huquqiy matn strukturasini ko'rish va tahlil qilish	IRAC bo'yicha ajratilgan model yozuv
	1.3. Guruhda muhokama – savol-javob	Yozuvga tayyorlov va mantiqiy fikrlashni faollashtirish	Fikrlar almashinuvi
	Terminlar va iboralar glossariysi	Yuridik iboralarni to'plash	Huquqiy tilga oid lug'at yaratish
2. Main task	Asosiy vazifa: "Sudga yozma ariza tayyorlash" (real ssenariy asosida)	Real huquqiy yozma topshiriq orqali fikrni huquqiy asosda bayon qilish	Yozilgan ariza (IRAC modeli asosida)
	Qonuniy asoslarni izlash (Qonunchilikka tayanish)	Normativ-huquqiy asoslarni topish va to'g'ri qo'llash	Arizada qonun moddalari asosida dalillar keltirishni o'rganish
	Juftlikda tekshirish	O'zaro baholash va tahlil qilish	Fikr-mulohazalar orqali yozuvni yaxshilash
3. Post-Task	O'qituvchi tahlili va umumiy mulohazasi	Kamchiliklarni aniqlash, umumlashtirish	Kuchli va zaif tomonlarni bilib olish
	Xatolar ustida ishlash	Til va strukturadagi muammolarni tuzatish	Yaxshilangan yozuv

	Refleksiya: "Men nimani o'rgandim?"	O'z ustida fikrlashni shakllantirish	O'z-o'zini tahlil qilish
	Til ustida ishlash: muvofig leksika va huquqiy iboralar	Rasmiy yozuvga mos ifodalarni mustahkamlash	Maxsus iboralar jamlanmasi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili mashg'ulotlarida yurispudensiya ta'lim yo'nalishi talabalarining yozuv malakalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Huquq sohasi talabalarining ingliz tilida yozma nutqini shakllantirish jarayoni umumiy til kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning kasbiy faoliyatiga xos bo'lgan huquqiy terminologiya, mantiqiy fikrlash, dalillarni izchil bayon etish, huquqiy hujjatlarni to'g'ri tuzish va akademik yozuv talablariga rioya qilish ko'nikmalarini ham rivojlantirishni taqozo etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim usullari bilan bir qatorda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish talabalarning ingliz tilidagi yozuv malakalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Xususan, hamkorlikda o'qitish, interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, raqamli ta'lim texnologiyalari, scaffolding hamda corrective feedback kabi yondashuvlar talabalarning yozma faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va yozma matn yaratish jarayoniga ongli yondashuvini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish natijasida talabalar ingliz tilida huquqiy mazmundagi fikrlarni mantiqiy va izchil ifodalash, tegishli huquqiy terminlardan o'rinli foydalanish, yozma matnning mazmuniy va strukturaviy yaxlitligini ta'minlash, o'z fikrlarini dalillar asosida asoslash hamda grammatik va leksik jihatdan to'g'ri yozish ko'nikmalarini egallaydilar. Shu bilan birga, o'zaro fikr almashish va

tuzatuvchi fikr-mulohazalardan foydalanish talabalarga o'z yozma ishlarini tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni mustaqil ravishda bartaraf etish imkonini beradi.

Shuningdek, yurispudensiya ta'lim yo'nalishida ingliz tilini kasbiy yo'naltirilgan holda o'qitish, ya'ni til ta'limi mazmunini huquqiy fanlar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv orqali ingliz tili mashg'ulotlarida huquqiy hujjatlar, case study, huquqiy muammolar, sud amaliyotiga oid materiallar va akademik matnlardan foydalanish talabalarining real kasbiy vaziyatlarda ingliz tilidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ingliz tili mashg'ulotlarida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan kompleks va metodik jihatdan asoslangan foydalanish yurispudensiya talabalarining yozuv malakalarini rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib, ularning lingvistik, kommunikativ, kognitiv va kasbiy kompetensiyalarini birgalikda shakllantirishga zamin yaratadi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida yurispudensiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ingliz tilini o'qitish jarayonida kasbiy yo'naltirilgan yozuv topshiriqlarini ko'paytirish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda yozma faoliyatni muntazam baholash va tahlil qilish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Atamirzayeva E.B. Talabalarga fransuz tilini integrativ yondashuv asosida o'rgatish texnologiyasi. PhD dissertatsiyasi. – 2025. – 96 b.
2. Хидоятова Д.А. Интерфаол таълим. – Т.: Абу Матбуот Кристал нашриёти, 2016. – 68 б.
3. Kagan S. Cooperative Learning. – Kagan Books, 2002. – 209 p.
4. Long M.H. Second Language Acquisition and Task-Based Language Teaching. – Malden, MA: John Wiley and Sons, Ltd., 2015. – 239 p.
5. Marashi H., Dadari L. The Impact of Using Task-Based Writing on EFL Learners' Writing Performance and Creativity. Theory and Practice in Language Studies, 2012. – P. 2500–2507.
6. Oczkus L.D. Guided Writing: Practical Lessons, Powerful Results. – Heinemann, 2007.

7. Qurbonova M.F. CLIL – zamonaviy yondashuv sifatida. Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o'qitishning psixologik-pedagogik jihatlari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani. – 2023. – B. 60.
8. Selvi K. Teachers' Lifelong Learning Competencies. International Journal of Curriculum and Instructional Studies, 2021. – P. 61–69.
9. Thirakunkovit S., Boonyaparakob K. Developing Academic Writing Skills through a Task-Based Approach: A Case Study of Students' Collaborative Writing. Reflections, 2022. – P. 526–548.
10. Хидоятова Д.А. manbasi kirill yozuvida berilganligi sababli alifbo tartibida "X" emas, asl yozilishidagi X harfi bo'yicha joylashtiriladi.